



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I**

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini “Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha namunaviy maktab”ga aylantirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi tomonidan 2024-yil 11-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida 2024-yilda amalga oshiriladigan islohotlarning reja-jadvali”da berilgan topshirig‘i ijrosini ta’minlash hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarini “Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha namunaviy maktab”ga aylantirish maqsadida **buyuraman**:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini “Tarbiyaviy ishlar bo‘yicha namunaviy maktab”ga aylantirish bo‘yicha talablar (keyingi o‘rinlarda “Namunaviy maktab” deb yuritiladi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Kamalov):

mazkur talablar asosida 2024-2025 o‘quv yilidan umumta’lim maktablaridagi tarbiyaviy ishlarni baholab borish amaliyotini joriy qilsin;

bunda 2024-yil may oyida har bir hudud markazida bittadan “Namunaviy maktabini” tashkil etish;

2024-yil oktyabr oyida mazkur “Namunaviy maktab”da hududdagi boshqa maktablar uchun o‘quv-seminarlar tashkil etish vazifasi yuklatilsin;

har o‘quv yili yakunida belgilangan talablar asosida baholash natijalariga ko‘ra yuqori natijalar qayd etgan maktablarning direktori va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlariga sohaviy mukofotlar berib borish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritib borsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari:

ushbu buyruq bilan tasdiqlanayotgan namunaviy talablarni barcha tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari hamda umumta’lim maktablariga yetkazish choralarini ko‘rsin;

joriy yilning may oyi yakuniga qadar har bir hudud markazida bittadan “Namunaviy maktab” tashkil etish choralarini ko‘rsin hamda ushbu maktablar uchun o‘quv-seminarlar tashkil etib borsin;

har o'quv yili yakunida belgilangan talablar asosida baholash natijalariga ko'ra yuqori natijalar qayd etgan maktablarning direktori va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlariga sohaviy mukofotlar berib borish bo'yicha takliflarni vazirlikning Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasiga kiritib borsin;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining hududiy bo'limlari bilan hamkorlikda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar holatini baholash va reytingini yuritish uchun tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlari rahbarligida maxsus komissiyalar tuzilsin;

maxsus komissiyalar tomonidan tuman (shahar)lari kesimida har o'quv yili yakunida "Namunaviy maktab" reytingini (keyingi o'rinlarda — reyting) shakllantirsin va e'lon qilib borsin;

reyting natijalariga ko'ra eng past ko'rsatgichli umumta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlar samaradorlini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

har chorak yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan vazirlikning Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish boshqarmasiga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

X.Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil 29 - mart
100 -son

